

– Qadrdon gazetamizga barcha tengdoshlarimni obuna bo‘lishlarini istayman, chunki undan juda ko‘p foydali maslahatlar olish mumkin, – deydi poytaxtdagi 231-maktabning 3 - «A» sinf o‘quvchisi, «Davrning bolasi» teledasturi muxbiri Robiyaxon BO‘RIXONZODA.



*Vatan yagonadir, vatan bittadir!*

*Tong*  
**YULDUZI**

O‘zbekiston Respublikasi bolalari va o‘smirlari gazetasi

2007-yil

24 – 30-sentabr

N:39

(66632)

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

KIM NOTIQ  
BO‘LISHI  
MUMKIN?

3-bet

VO,  
AJABO!

5-bet

YO TAVBA.  
SHUNAQANI?

7-bet

Bu yerda  
sizning e’loningiz  
bo‘lishi mumkin.

8-bet

*Ular aziz ustoz, murabbiy!*

*Ular bizning  
ertangi  
faxrimiz!*

**Eng muhimi, ular**  
**“Tong yulduzi”**  
**muxlislari!**

**BOY BO‘LISHNI  
ISTAYSIZMI?**

Luqmoni Hakimdan so‘radilar:

– Badavlat odam kim?

Dedi:

– Aql boyligiga ega bo‘lgan kishi.(7-betga qarang.)

Hayotda ko‘rayapmizki, yoshlida yaxshi tarbiya, yetarli bilim olgan inson bugun to‘q, farovon yashamoqda. Besh so‘m topib kerilib ketgani ham yo‘q. Mahalla-ko‘yda hammaga yordami tegadi. Ishxonasida hurmati baland. 80 yoshi ota-onasi ham undan xursand. El uni boshiga ko‘taradi.

Biz Sizni ana shunday insonlar qatoridan o‘rin olishingizni istaymiz. 2008-yil uchun obuna boshlandi. Bizni o‘qib boring, boy bo‘lasiz. Aql boyligi, farovon kelajak demakdir.

Yana bir yangilik.

Obuna varaqalariga qo‘sib, bitta fotosuratingizni ham yuboring. Yangi yil arafasida yutuqli obunaga ega bo‘lasiz. Gazeta mukofoti Sizga nasib etsin!

Poytaxtdagi 276-maktab  
hayotidan lavhalarni gazetaning  
navbatdagi sonida o‘qisiz.

**DUSHANBADA**

**ADIBGA  
EHTIROM**

Yurtimizda O‘zbekiston xalq yozuvchisi Abdulla Qahhor tavalludining 100 yilligi keng nishonlanmoqda. Azim poytaxtning eng go‘zal maskanlaridan biri – Alisher Navoiy nomidagi milliy bog‘da yozuvchiga haykal o‘rnatildi.

Aziz bolajonlar, kim yurtiga halol xizmat qilsa, ana shunday e’zoz topishini aslo unutmang.

**SOVG‘A AVTOBUS**

Toshkent viloyatidagi bir nechta «Meh-ribonlik uyi», maktab-internat hamda maxsus maktablarga respublika byudjetidan ajratilgan mablag‘ evaziga “ISUZU” rusumli avtobus sovg‘a qilindi.

Endilikda bolakaylar o‘zlarining shaxsiy avtobuslarida sayohatlarga chiqishda, turli tadbirdarga, sport musobaqalariga borishda qynalmaydigan bo‘ldilar.

**SHUBHA YO‘Q**

Qashqadaryo viloyati, Qarshi tumani, Hilol qishlog‘idagi bolalarning quvonchi cheksiz. Nega, deysizmi? Chunki bu yerda bolalar sport majmuasi qurilib, bolajonlar ixtiyoriga topshirildi.

Yillar o‘tib, hilolliklar orasidan dunyo championlari yetishib chiqishiga shubha yo‘q.


**BO‘SH KELMANG!**

Namangan shahridagi «Do‘slik» tennis majmuasida o‘tkazilgan «Kichkintoy» turnirida yuzdan ortiq quyi sinif o‘quvchilari o‘zarो kuch sinashdi. Yosh tennischilar o‘zlarining chaqqonliklari bilan kelajakda mohir sportchi bo‘lishlarini isbotladilar.

Bolakaylar, bundan keyin ham bo‘sh kelmang!

Xabarlar respublika matbuoti materiallari asosida tayyorlandi

**DUSHANBAGACHA**



# PARVOZGA SHAYMISIZ?

Maktublardan satrlar



## MENGA KUCH BAG'ISHLAYDI

Salom, sevimli gazetam «Tong yulduzi»! Seni har bir soningni qo'lga oladigan kunimni intiqliq bilan kutaman. Maktabdosh do'stlarimga, oila a'zolarimga seni o'qib berishda sira ham charchamayman. Aksincha, bu menga kuch yangi 2008-yil uchun senga obuna bo'lishga qaror qildim.

Gulshan SAIDNAZAROVA, Buxoro viloyati, Jondor tumanidagi 46-maktab o'quvchisi

## Topishmoqlar

Bo'sh vaqtini behuda sarflar,  
Bilasizmi, u kim...

(Isrofagar)

O'rmonda yashagan kabi yovvoyi,  
O'qish va ishyoqmas bola...

(Hayovi)

Og'zi alomat,  
Ichi qizil salomat.  
Suv sepsam, quruq chiqar,  
Yo alhazar, qiyomat!



Kichikkina parranda,  
Bulbul kabi sozanda.  
Ko'krak pati to'q sariq,  
Ovlab yeydi u baliq.

Erta bahor ekamiz,  
O'zi ko'm-ko'k va silliq.  
Archib, tuzlab yesangiz,  
Juda muzdek va suvlik.

Ma'ruf JABBOROV,  
Jizzax viloyati,  
Jizzax tumanidagi  
14-maktab o'quvchisi

## SHAYMISIZ?

Assalomu alaykum, tahririyat xodimlari! Men gazetaning har bir sonini muntazam kuzatib boraman. Gazetaning 31-sonida chop etilgan «She'r yozar mitti yurak» sarlavhasi ostida bildirilgan fikrlar bilan tanishib chiqdim. Bu fikrlarni o'qib, tengdoshlarimga shunday degim keldi: she'r yozishning ham o'ziga yarasha qonun-qoidalari bor. Bu qoidalarni yaxshi bilaman, demayman. She'r yozayotgan bolalarni endi uchishni o'rganayotgan palaponlarga o'xshataman. Ammo ba'zi tengdoshlarim parvoz etishga shaymikinlar? Bu borada shoshqaloqliq qilish kerakmas. Chunki ilk parvozdayoq pand yeb qolish mumkin. Demoqchimanki, men gazeta orqali o'z bilimimni oshirib boraman, qarashlarim, fikrlashim o'zgaradi. Tengdoshlarimga «Tong yulduzi»ni muntazam o'qib borishlarini maslahat beraman.

Dilbar TO'RABOYEVA, Xorazm viloyati,  
Gurlan tumanidagi Do'simbiy qishlog'i

## TEZ AYTISHLAR

Tomchi toma-toma tomni teshadi.

\*\*\*

To'riq tulporning tuyoqlari taxta to'shamani taqillatdi.

Hasan OTAQULOV, Toshkent viloyati, Bekobod tumani



## AGAR MA'QUL TOPSANGIZ...

Bu gazetaga obuna bo'lganim boisi tengdoshlarim ijodidan doimiy bahramand bo'lib turishdir. Ayniqsa, menga turli tanlovlarning e'lon qilinishi juda ma'qul kelmoqda. Chunki bu tanlovlar o'quvchilarining bilim va tafakkurini sinabgina qolmay, ularning gazeta bilan qay darajada muloqotda bo'lishini bildiradi. Men bo'sh vaqtlarimda she'rlar yozib turaman. She'rimni agar ma'qul topib chop etsangiz, boshim ko'kka yetardi.

## VATAN TUYG'USI

Alishmam xasingni o'zga yurtlarga,  
Vatanim jamoling qanchalar go'zal.  
Seni ta'rifingni topolmas hech kim,  
Beqiyos yaratgan taqdiri azal.

Toshkent viloyati, Bo'ka tumanidagi  
53-maktabning 9-«B» sinf o'quvchisi

Tahririyatimizga yana talaygina maktublar kelgan. Quyida bizga maktub yo'llagan o'quvchilarining ism-familiyalarini berayapmiz. Kelgusida ularning xatlaridan ham foydalanamiz.

- 1.Ro'ziqul SAIDQULOV, Toshkent viloyati, Bekobod tumanidagi 46-maktabning 5-«B» sinf o'quvchisi.
- 2.Furqat KARIMOV, Sirdaryo viloyati, Boyovut tumani.
- 3.Mahfura SHAMSIYEVA, Buxoro viloyati, Romitan tumanidagi 23-maktab o'quvchisi.
- 4.Qobil ABDUQAHHOROV, Namangan viloyati, Yerqo'rg'on tumani.
- 5.Zebiniso XALIMBETOVA, Qoraqalpog'iston Respublikasi, To'rtko'l tumani.
- 6.Sotimposhsha XUDOYNAZAROVA, Xorazm viloyati, Yangiariq tumani, Boyot qishlog'i.
- 7.Mohichehra PO'LATOVA, Buxoro viloyati, Kogon tumanidagi 4-maktab o'quvchisi.
- 8.Nazokat RAHMONOVA, Buxoro viloyati, Kogon tumani.
- 9.Qudratillo BOTIROV, Samarcand tumani.

Bizga yana maktabingiz va tumaningizdagи yangiliklar, Sizni qiyayotgan muammolar haqida maktub yo'llang. Xatlariningizni kutamiz.

Xatlar bo'limi

## DUO SO'RAB KELGANDI

Fayzli va barokatli Ramazon oyining dastlabki kunlari edi. Masjid eshigi oldida boshiga do'ppi, egniga oq ko'yak kiyib olgan 8-9 yoshli qorachadan kelgan bir bolakay yerga qarab yig'lab turardi.

Namozdan chiqqanlar bolani yupatishga tushdilar. Kimdir cho'ntagidan pul, kimdir qand-qurs olib uzatdi. Ammo bolakay bu narsalarga e'tibor bermasdi.

### Ramazon tuhfasi

Shunda Anvar qori chiqdilar bolanining boshini silab: «Qani, ichkariga», deya boshladilar. Anvar qoriga yuzlangan bolakay: «Sizdan duo so'rab keldim, onamning olamdan o'tganlariga bugun 4 kun bo'ldi. Ularni juda sog'inyapman, ko'rgim, gaplashgim kelyapti. Bir duo qiling, tushimga kirsinlar», dedi.

Ertasi kuni bolakay yana masjid eshigi oldida paydo bo'ldi. Bugun u yig'lamasdi. Yuz-ko'zidagi sog'inch alangasi biroz pasaygandek edi. Namoz tugashini kutib turgan ekan, hamma chiqib ketgach, domlaning yonlariga kirdi. «Sizga rahmat, duolaringiz uchun, tong saharda onam tushimga kirdilar...», deya minnatdorchilik bildirdi.

Nuroniy keksalarimiz to'g'ri aytishar ekan, «Duo olgan omondir, duoibat yomondir», deb.

Jamshid NABIYEV,

O'zMU jurnalistika fakultetining  
2-bosqich talabasi

...Kechagidek yodimda, ilk bora maktab ostonasiga qadam qo'ygan kunim edi. Qayerga borishni bilmay turganimizda, yonimizga jilmayib Aziza opa keldilar. Ularga qo'limdagи bir dasta gulni uzatdim. Yuzimdan o'pib, bizni sinfga yetakladilar. Shu kundan e'tiboran negadir o'qituvchi bo'lgim kelaverdi.



Aziza opa har bir darsni qiziqarli o'ynilar bilan o'tardilar. Hatto betob bo'lgan kunlarim ham dars qoldirmaslikka harakat qillardim. Kunlar o'tishi bilan o'qituvchilik kasbiga bo'lgan qiziqishim orta bordi.

Yillar o'tib, men ham boshlang'ich sinf o'qituvchisi bo'ldim.

Hozirgi kunda Katta qo'rg'on tumanidagi 61-maktabda 2-sinf o'quvchilariga dars beryapman.

Bu ardoqli kasbga mehr qo'yishimga sababchi bo'lgan ustozim Aziza opa Boymurodovadagi jo'shqinlik hanuz so'nmag'an. Yaqinda opaning «Vafo daraxti» deb nomlangan she'riy kitobi nashrdan chiqdi. Tinimsiz mehnatlari evaziga Xalq ta'limi a'lochisi unvoni bilan mukofotlandilar. Bu xushxabardan juda quvondim. Chunki ustozning yutug'i shogirdiniki ham-da.

Ma'mura XALILOVA,  
Samarcand shahri

Mazkur savolga aniq bir javob berish mushkul. Moziyning guvoh bo'lishicha, notiqlik san'ati Olloh tomonidan beriladigan in'omdir. Ba'zida bir insonni gapini tinchgina eshitishga sabrimiz yetmaydi. Notiqlar esa bir qancha ming, e t i b , aylaydilar.

Ma'lumki, notiqlik san'ati hisoblanadi. Qadimgi notiqlarning vatani a t t i t s c h a Aziancha yo'nalish aforizmlardan vakillari esa tarixchi Fukidid qo'llagan oddiy, qisqa til yordamida ma'ruza qilishardi. Azian maktabi yirik vakili Gortenskiy Gortal, attits maktabi vakillari Yuliy Sezar, shoir Lisinii Kalv va Mark Brut, Mark Tulliy Sitseron azian va attits maktablari an'analarini jamlab, o'ziga xos yangi notiqlik maktabiga asos soldi. Rim notiqlari orasida erkinlik va mustaqillik uchun olib borilgan urushlarda olingen chandiqlarni ko'rsatish usuli keng tarqalgan.

Notiq bo'lishni, ko'pchilik oldida chirolyi ma'ruza qilishni xohlaganlar uchun bir qancha amaliy maslahatlar mavjud. Mashhur amerikalik ruhshunos Deyl Karnegi o'z asarida quyidagi maslahatlarni beradi:

- Yaxshi notiq bo'lish uchun avval yetuk shaxs bo'lish kerak.
- Charchagan holda notiqlik qilib bo'lmaydi.
- Ma'ruzadan oldin to'yib ovqatlanish mumkin emas.
- Ichki kuchingizni bir joyga to'plang.
- Sipo va ozoda kiyim kiying.
- Jilmaying. Tinglovchilarini samimiy qarshi oling.
- Tinglovchilarini bir joyga to'plang.
- Ma'ruzangiz rasmiy emas, balki suhbat tarzida bo'lsin.
- Xonadagi havo toza va yoqimli bo'lsin.
- Tinglovchilar sizni yaxshi ko'rishsin.
- Minbar ortida turmang, oldingizda ortiqcha narsalar bo'lmasin.

Demak, buyuk notiq bo'lib yetishish hazrati insonning o'z qo'lida ekan. Agar kimda-kim notiqlik san'atiga qiziqsa, buning uchun faqat harakat qilmog'i lozim. Axir aytishadi-ku, «harakatda barakat», deb.

Aziza SHONAZAROVA

## KIM NOTIQ BO'LISHI MUMKIN?



millionlab kishilarni mahliyo ma'ruzalarini ularning qalbiga jo

milloddan avvalgi II-I asrlar gullab-yashnagan davr Yunoniston va qadimgi Rim buyuk hisoblanib, asosan aziancha va yo'nalishlar bo'yicha ijod qilinardi. notiqlari chirolyi ibora va foydalanishar, attits maktabi mashhur notiq Litsiy va atoqli tarixchi Fukidid qo'llagan oddiy, qisqa til yordamida ma'ruza qilishardi. Azian maktabi yirik vakili Gortenskiy Gortal, attits maktabi vakillari Yuliy Sezar, shoir Lisinii Kalv va Mark Brut, Mark Tulliy Sitseron azian va attits maktablari an'analarini jamlab, o'ziga xos yangi notiqlik maktabiga asos soldi. Rim notiqlari orasida erkinlik va mustaqillik uchun olib borilgan urushlarda olingen chandiqlarni ko'rsatish usuli keng tarqalgan.

Notiq bo'lishni, ko'pchilik oldida chirolyi ma'ruza qilishni xohlaganlar uchun bir qancha amaliy maslahatlar mavjud. Mashhur amerikalik ruhshunos Deyl Karnegi o'z asarida quyidagi maslahatlarni beradi:

Bolalikda har birimizda yodga olsak arzulik voqealar ko'p bo'lgan. Albatta, barchasini eslab bo'lmas. Lekin ba'zilari shirin tushday birgina ko'rinish beradi-yu, tamshanib yuraveradi kishi. Harchand urinsang ham yodingga tushavermaydi. Uni eslash uchun o'sha muhit yoki bo'Imasa birga ko'cha changitib yurgan jo'ralaring bilan suhbatlashib turishing kerak. Ko'p qatori kamjanining bolalik hayotida ham... Keling, yaxshisi bir voqeani so'zlab beraqolay:

Har bir o'quvchining mактабида o'zi o'xshagisi kelgan, taqlid qilgisi, o'rnak olgisi kelib, hurmatlab yurgan o'qituvchisi bo'ladi, albatta. Shundaylardan biri men uchun Yo'ldosh muallim edi. O'zi Farg'ona vodiysi tarafdan bo'lib, tili shirin, ravon, adabiyotdan dars o'tardi. Mubolag'a bo'lmas, xushmuomalalikda mактабимизда u kishidan o'tari yo'q edi. Xoh o'zidan keksa bo'lsin, xoh yosh bo'lsin, «siz» lab muomala qilardi. Men ham ko'pchilik qatori ko'nikib ketgan

Aniqrog'i,

**SIZ**

**VA**

**SEN**



(Esse)

edim.

Yo'ldosh muallim bilan so'zlashganda o'zga bir go'zal dunyoga kirib qolganday sezar edim o'zimni. Boshqa muallimlarimiz gina qilmasalar kerak, «sen» so'zini bizga juda qoyilmaqom qilib singdirishgan edilar.

Kunlardan bir kuni tanaffusga (bino bir qavatl bo'lib, yog' och ustunli ayvon bo'lar edi) bolalar shovqin solishib, mактаб томини boshlariga ko'targuday bo'lishib, o'zlarini tashqariga urishdi. Bir payt ikki o'g'il bola, beshinchi sinfdan bo'lsa kerak (kamina to'qqizinch sinfda tahsil olar edim), yo'1


talashibmi, harqalay jo'jaxo'rozday yoqalashib qolishibdi. Aksini olib, Yo'ldosh muallim mактабда shu kuni navbatchi ekanmi, osoyish talikning buzilganini payqab qolib, biz bolalarni ajratib ulgurmasimizdan qayerdandir paydo bo'lib qoldi. Bolalarni tinchitishga harchand urinib, bas, bo'ldi, ikkingiz ham janjalni to'xtating, deganiga quloq solmaganlaridan muallimning jahli chiqdi shekilli, ikkalasining qulog'idan ikki qo'li bilan ushlab ajratib, sizlarga «siz» so'zi xayf, «sen», «ssen», deya ikkalasini qo'yib yuborganini bilaman-ki, mактабимиз bo'yicha «sen» so'zi to'pdondan otilgan o'qdek otilib larzaga solib yubordi barchamizni. Bolakaylar esa xuddi yuzlariga tarsaki tortib yuborilganday ho'ng-ho'ng yig'lab yuborishdi. Eng qizig'i, biron kishi ularni yupatishga urinmadi. Shu-shu «siz» so'zining nechog'lik jozibali, «sen» so'zining esa qanchalik dag'al ekanligi hamon yodimdan chiqmaydi.

Bir-biringizni sizlang, degim keladi, azizlarim.

Ayubxon MUHAMMADIY

## USTA VA CHARXPALAK

Shoyim BO'TAYEV



Davomi. Boshi o'tgan sonlarda.

### (Ertak-qissa)

– Tarbiyalang?! – hayratga tushdi savdogar.  
– Eshakni-ya?!  
– Albatta.  
– Qanday qilib?  
– Siz tuz o'mniga qopga yung solib qo'ying.  
Yung erib oqib ketmaydi-yu, suvni o'ziga shimbib, besh-o'n baravar og'irlashadi. Eshagingiz kunini ko'radi shunda, ustida yuk bilan suvga sho'ng'imaydigan bo'ladi!

Ustdan bu gapni eshitib, savdogarning ko'zi chaqnab ketdi.

– Albatta shu ishni qilaman! – dedi ketayotib.

'Usta bu yerda qadimgi dunyo faylasuflaridan biri Falesga qiyoslanyapti. Bu voqeа tafsiloti aslida miletlik Falesga tegishli.

U negadir hovlining bir chetida yotgan cho'lto narvonga ham ko'z qirini tashlab qo'ydi. Xayolidan nima gap o'tganini hech kim bilmadi.

### NARVONGA ISH CHIQDI

Ustanikiga savdogar kelib, eshakni qanday ahmoq qilganini kula-kula gapirib berdi.

– Uch marta yung olib o'tib, eshakni qiyab qo'yibsiz-da, – dedi Usta. – Axir bir martasi ham kifoya edi-ku.

– Boshqa noma'qulchilik qilmasin, dedim-da.

Usta savdogarga hayron bo'lib qaradi. O'ziga tegishli jonivorga bu qadar rahmsizlik qilish mumkinligini aqliga sig'dira olmasdi.

– Eshakning esini kirkizaman, deb ancha-muncha zarar ko'rdim, – dedi savdogar. – Anchagina yung shalabbo bo'lib yotibdi. Uni yoyib, quritib olishim kerak. Shunga narvoningizni berib tursangiz.

Usta rozi bo'ldi.

Narvonni savdogarga berib yubordi.

Savdogar narvonni ko'ndalangiga yotqizib, eshak suvga sho'ng'iganda shiltayi-shalabbo bo'lgan yungni uning ustiga yoyib chiqdi. Bechora eshak, shunday og'ir yukni suvdan qanday sudrab chiqdi

ekan-a?

### OSMON UZOQ, YER QATTIQ

Ustaning xayoli o'zida bo'lmay qoldi: fikri-zikri charxpalakni ishga tushirib, narigi sohilda yashayotganlarning mushkulini oson qilishda edi. Ammo holva degan bilan og'iz chuchimas ekan. Unga mablag' kerak edi. Nima qilib bo'lsayam ishni boshlashim kerak, deb o'ylandi u, keyin xudo biron yo'lini ko'rsatar.

Ammo ish boshlash uchun ham ancha-muncha narsa kerak bo'lardi.

Usta tanish-bilishlarini, qavm-u qarindoshlarini xayolan bir-bir tasavvur qilib chiqdi: biron najot topish nari tursin, qaytanga ko'ngli xiralashib qoldi.

Usta tasavvur etgan yaqinlari mehnatdan qochmaydigan, xudadan qo'rqadigan halol, pok kishilar edi. Shunday bo'lsa-da, ular amal-taqal kun ko'rishar, qozonlarini suvga tashlab qo'yishgan, bir burda qora non topishsa, shunga xursand edilar. Ularning barchasining yuz-ko'zlarida og'ir mung, iztirob muhrlanib qolganday ko'rindi. Shu bois usta ulardan biron narsa so'ray olmasdi.

(Davomi bor.)

O'lkamizda qo'ni-qo'njini shirin-shakar mevalarga to'ldirib, kuz fasli xushhol kezib yuribdi. Oltinga qiyosanadigan bu fasli nafaqat ijod ahliga, balki tabiat shaydolariga ham bir olam zavq-u shavq, ilhom bag'iishlaydi. Buni «Onajonim tabiat» rukniga kelayotgan xatlarning ko'pligidan ham asrabsilsa bo'ladi. Tabiat go'zalliklaridan zavqlanibgina qolmay, uni asrabavaylash lozimligi, shuningdek, ularni o'yantirayotgan mahalliy muammolar haqida ham yozishayotgani barchamizni quvontiradi.



Sholi dalalarining mo'lligi yaxshiku-ya, lekin ayrim joylarda tabiatdagi muvozanatning buzilishiga, yerning zararlanishiga sabab bo'layotgani ranjiteti kishini.

## DALASINI O'YLAGAN QIZ

Yaqinda poytaxtimizda bo'lib o'tgan respublika mijyosisidagi «Tabiat: kecha, bugun, ertaga» anjumani ishtirokchisi xorazmlik Gulruhsor Oliberganova «Mahalliy ekologik muammolar yoshlar nigohidagi» mazvusidagi ma'rurasida aynan shu haqda fikr yuritdi va 1-o'rinni qo'lg'a kiridi. To'rtta sho'bada o'tkazilgan anjumanda respublikamizning barcha viloyatlaridan kelgan o'quvchilar ishtirok etdilar. Urganch tumanidagi 24-maktabning 8-sinfida a'lo baholarga o'qish bilan birga, maktabidagi «Kamolot»chilarga sardorlik ham qilib kelayotgan Gulruhsor tabiatning haqiqiy jonkuylaridan. Mana ikki yildirki, maktab qoshidagi «Yosh ekologlar» to'garagiga a'zo bo'lib kelyapti.

U, shuningdek, ajabtovur ijodkor ham. She'rlari, hikoya va ertaklari maktab qoshidagi «Iste'dod» klubining «Shu'la» nashrida tez-tez yoritib turiladi. Tuman XTBning «Iqtidori o'quvchi» maxsus Diplomi bilan taqdirlangan.

Viloyatimizda sholi dalalari juda ko'p, – deya so'z boshladi Gulruhsor kuyunchaklik bilan. – Korazmda yer osti suvilar yer ustiga juda yaqin joyleshgan. Doimo suv bilan to'la turadigan sholi maydonlari esa yer osti suvlarning yana-da ko'tarilishiga, hatto tuproq irroziyasiga ham olib kelishi mumkin. Turli hasharotlarning ko'payib, insonlarga zarar yetkazayotganini, mayli, gapirmay ham qo'ya qolaylik. Aslida insonlar yashaydigan joydan kamida 3-5 kilometr uzoqlikda bo'lishi lozim bo'lgan bunday dalalarning mevazor bog'lar, xonadonlar devori tagigacha taqalib kelishi natijasida uy devorlarining nurab, bog'larning qurib qolishiga sabab bo'layotgani haqida bong urmaslikning hecham iloji yo'q. Xorazmning gultoqlari hisoblannish azim gujum daraxtlarini bugungi kunga kelib qurtlar kemirmoqda...

Gulruhsorning hali ancha yosh bo'laturib, xuddi kattalardek fikrlashi, dolzarb, og'riqli muammolarni ko'taribgina qolmay, ularning yechimi haqida ham izlanishi hayratimizni oshirdi.

## Mehrjonim mehridan

Yuzlarimga tong shu'lasi tiriklik berib,  
Bu kun uchun ato etdi yana kuch, g'ayrat.  
Dengiz uzra marjon-marjon tomchilar terib,  
Nasib qildi ummondayn lojuvard hayot.

Lolardan alvon-alvon tulslari olib,  
Qalbralimga insoniylik mehrini berdi.  
Dilginanga oydeq oppoq orzular solib,  
Ko'zlarimni shudring ilo olmosday terdi.


Qomatini jo qiloldi mag'rur tog'lar ham,  
Insonlarda bo'lsin deya g'urur, salobat.  
Mehrjonim mahoratin ko'srsatdi bizga,  
Go'zalliklar ato etdi go'zal tabiat.

Mohira QODIROVA,  
Xorazm viloyati, Urganch shahridagi 16-maktabning  
8-sinf o'quvchisi



A z i z a  
Mo'minxo'jayeva Qashqadaryo  
viloyatining Kitob tumanidagi so'lim Qaychili qishlog'ida  
yashaydi. Hozirda tumandagi O'zbekiston nomli 14-  
maktabning 9-«A» sinfiga tahsil olayotgan Aziza tasviriy  
san'atga juda erta, 3-4 yoshidan oq mehr qo'yg'an. Rang  
tasvir yo'nalishi bo'yicha Respublika mijyosisidagi ko'rik-tanlovda  
qatnashib, «Eng mohir mo'yalaman sohibi» nominatsiyasi  
bilan taqdirlandi.

Chizgan rasmlaridan uning nafaqat tasviriy san'at,  
balki tabiatning ham shaydoi ekanligi ko'rinib  
turibdi.



## ONAJONIM TABIATI



Hikoya

barglari ko'rinib turardi. May oyi o'talarida tut mevasi pishardi. Qishloq bolalari qorong'u tushguncha daraxt tagidan ketishmasdi. Bola ekanimiz, quyosh bilan birga uyg'oni, yuz-qo'limizni ariq suvida chala-chulpa yuvib, tutlar ustiga chiqardik.

Balxi tutlarni otam 1919-yili bahorda Zokir akam tug'ilgan kuni ekan ekanlar.

Yillar o'tdi, tutlar tanasi yiriklashdi. Har tong chelak ko'tarib ariqqa suvga tushganimda, katta tutlarning goh unisini, goh bunisini quchoqlab, bag'rimga bosardim, shoxlariga termulib, ma'yus bo'lib qolardim.

Ikkinci jahon urushi yillari qanchadan-qancha ojalarni ochlikdan saqlab qolmadiga ya bu tutlar.

Zokir akam muallim edilar. Urushga ketayotib, menga: «Maktabda yaxshi o'qigin. Eson-omon qaytsam, seni katta o'qishlarda o'qitaman», degandilar. Afsuski, akam niyatiga yetolmadi...

Hozir yoshim 80 dan oshdi. Ona qishlog'imga borsam, albatta 100 yillik bir juft tut daraxtingin yoniga boraman. Quloch yetmas tanasini quchoqlab, Zokir akam bilan mevalaridan talashib-tortishib yegan damlarimizni eslayman. Xotirlayman-u, ko'zlarimga yosh quyilib kelaveradi.

Qudratilla BOTIROV,  
mehnat faxriysi

Sahifani Feruza JALILOVA tayyorladi



## KICHKINA DEMANG BIZNI...

Kosta Rikada uchraydig'an mana bu mitti qurbaqachalarini zinhor nazaringizga ilmay ko'mang. Chunki kattaligi 2,5 santimetр keladigan qizil rangli bu mitti qurbaqachalar o'ta zaharli hisoblanadi. Bunday qurbaqlarning fonda 100 dan ortiq turlari ma'lum. Odatta yerda ov qiladigan bunday qurbaqlar barmoqlari uchidagi yopishqoq yostiqchalar yordamida daraxt shoxlari va yaproqlarida bemalol harakat qila oladilar.

## VAJOHATINI GARANG!

Yirtqichlar tomonidan halovati buzilgan mana bu chumolixo'r tamanduaning vajohatini bir ko'ring. Uzon dumiga tayaniq orqa oyoqlarida turib olgancha, o'tkir tironqlarini jangga shaylab turgan jonivordan uzoqroq yргanganiz ma'qul.




VO, AJABO!



BU HALI HOLVASI...

Ikki kishi suvdan bazo'r ko'tarib chiqayotgan anakondani ko'rib, kattaligini qarang, deysizmi? Bu hali holvasi! Janubiy Amerikada yashaydigan bunday ilonlar dunyodagi eng yirik ilonlardan bo'lib, ayrimlarining irligi 250 kilogrammgacha yetadi. Ular umrining asosiy qismini suvdva yoki sohilda o'tkazishadi.



Sirdaryo viloyati, Baxt shahridagi 3-O'smirlar ijodiy o't markazi a'zosi Bekzod Xudoberdiy olgan suratini «A malai san'atga tabiat in'omi» deb nomlabdi.

Australiyaning 20 millionlik aholisiga ulardan ikki barobar ko'p bo'lgan 40 million kenguru to'g'ri kelar ekan.



“ZAMIN NE'MATLARI”  
AYLANMA SKANVORDI

# SHOIR OLQOR BOBOMIZ

Astrid LINGREN

– Men bug‘ mashina bo‘yicha dunyoda eng zo‘r mutaxassisman! – deb maqtandi Karlson. – Bundan keyin dadang bilan akang Boss yo‘g‘ida ham o‘zimiz yurgizaveramiz.

Karlson javondan bir shisha spirt oldi-da, mashinaning qorniga quydi. Lekin uquvsizlik qilib, javonning bir-ikki yeriga spirt to‘kib yubordi.

– E, chatoq bo‘ldi, oyim ko‘rsa naq o‘ldiradi, – deb hiqilladi

## VA BOLAKAY HAQIDA QISSA

Davomi. Bosh o‘tgan sonlarda.

Bolakay.

– Uch-to‘rtta dog‘ning zarari yo‘q, – deb uni ovutdi Karlson, – yaxshilab artvor, top-toza bo‘ladi.

Bola doka olib, javondagi qora dog‘larni artishga tushdi. Karlson esa gugurt olib mashina piligiga o‘t yoqdi. Tiz cho‘kdi, tamshanib mashinaga tikilib qoldi.

– Hozir u yuradi, hozir!.. – dedi boladay sevinib.

Rostdan ham sal o‘tmay gup-gup degan tovush chiqdi va mashina chinakamiga gurillab ishlaj boshladidi. Karlson xuddi bu mashinani o‘zi yasaganday quvondi, uning pish-pish etib yurishini ko‘rib Bolakay ham xursand bo‘ldi. Ammo kutilmaganda mashina turgan yerida bir irg‘ishladi-yu, «varang!» etib portlab ketdi. Mashinaning mayda-chuyda qismlari butun xonaga sochildi. Bolakay qo‘rqib gapirolmay qoldi. Karlson esa negadir o‘zida yo‘q xursand edi.

– Qara, rosa chiroyli portladi-ya! Tovushning zo‘rligini aytmaysanmi? Voy, azamat-ey...

Bolakay bo‘lsa uy bilan bitta bo‘lib yotgan mashina bo‘laklariga qarab, yig‘lab yubordi:

– Mening bug‘ mashinam... U yo‘q... Endi dadamga nima deyman?

– E, shungayam kuyib-pishasanmi? – deb baqirdi Karlson, – bitta mashina sinisa sinibdi-da. Mening hujramda bunaqa mashinalardan yuztasi yotibdi, senga bitta emas, ikkitasini beraman. Qo‘y, xafa bo‘lma, Bolakay.

– Sening uying qayerda, Karlson?

– Tomda. Mo‘rikonning orqasida.

– Rostdan ham uyingda bug‘ mashinang bormi?

– Bor. Ko‘p emas-u, harqalay, o‘ntacha chiqib qolar.

– Unda bir kuni sening tomdagi uychangni ko‘rish kerak ekan.

– Vaqt-soati bilan ko‘rsan. Men endi ketishim kerak. Dadangga aytilib qo‘y, bir mashina deb seni xafa qilmasin. O‘zim senga bug‘ mashinaning zo‘rini keltirib beraman. Chin Karlson so‘zim.

Karlson qornidagi tugmachani bosdi. Motor ishladi, parraklar pirillab aylandi. Karlson lip etib derazadan uchib chiqdi-yu, «Xayr, ko‘rishguncha omon bo‘l, Bolakay!» deb qo‘l siltadi va tomiga qarab parvoz qildi. Hademay u ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi. Bolakay kaftlarida eski mashina bo‘laklarini ushlagancha o‘ylanib qoldi.

Kechki ovqatdan keyin oila a‘zolari jam bo‘lib, Bolakayni o‘rtaga olishdi.

– Xo‘sh, endi ayt-chi, o‘sha Karlson deganining kim o‘zi? – dedi dadasi.

Bolakay jig‘ibiyron bo‘ldi:

– Necha marta aytaman sizlarga. U tomda yashaydi, kichkina uychasi ham bor.

– Tag‘in kapalakka o‘xhab uchib yurarmish, – kesatdi akasi Boss.

– Ha, uchib yuradi! – achchiqlandi Bolakay, – ishonmasanglar, yaqinda yana uchib keladi, shunda o‘zlarin ko‘rasizlar.

– Ertaga kelsa, yaxshi bo‘lardi, – dedi opasi Betan, – agar o‘sha Karlson deganining rostidan ham uchar odam bo‘lsa... Uni ko‘rsam, senga yuz so‘m berganim bo‘lsin.

– Ertaga kelolmaydi, – dedi Bolakay, – ertaga u motorini ko‘rsatgani ustaxonaga borar ekan.

– Yolg‘on to‘qishni ham obdon o‘rganibsan, o‘g‘lim, – deya gapga aralashdi dadasi, – kun-u tun tomda qanday yashaydi u, qanday qilib uchadi, aqlim yetmayapti. Xayolparast bo‘lib qolibsan o‘zi.

Onasi dadasini quvvatladi:

– Qaysarlik qilma, bolam. Hazilakam portlash bo‘libdimi? O‘zingga bir narsa bo‘lganda, nima qillardik, hech o‘ylab ko‘rdingmi? «Karlson, Karlson!» deb to‘tiqushga o‘xshamay, darsingni qil... Kitob javoningni qara, rasvosи chiqibdi...

– Karlson aytdiki, bu arzimas narsa emish. Ha, aytgancha, u menga yangi bug‘ mashina sovg‘a qilmoqchi, oyi.

– Seni laqillatgan-da u yolg‘onchi. Agar yana bir marta derazamizdan mo‘ralaydigan bo‘lsa, esidan chiqmaydigan qilib ta’zirini beraman.

Davomi bor.

Taniqli bolalar shoiri Olqor Damin 1947-yilda tug‘ilgan.

Alisher Navoiy nomidagi Samarqand Davlat universiteti o‘zbek va tojik filologiyasi fakultetida tahsil olgan.

Shoirning «Tongdagi gullar», «Salom, yaxshilik», «Sabr haykali», «Sohibqiron» nomli she’riy kitoblari muxlislari tomonidan iliq kutib olindi.

O‘nlab she’rlari maktab darsliklariga kiritilgan.

Seyimli shoirimiz bu yil tabarruk 60 yoshni qarshiladilar. Ko‘p ming sonli o‘quvchilarimiz nomidan ularni samimiyy muborakbod etamiz.

## UKACHAM

Ukacham bor, ukacham,  
«Dangasa» emas hecham.  
Uxlayveradi, uxlab –  
Rosa charchab ketsa ham!

## QAHRAMON

### QO‘RQOQ

Ukam qahramon  
Juda ham qo‘rqqoq.  
U kuni rosa –  
Otib shataloq,



Oyog‘i qo‘lda  
Uyiga kelsa.  
Soyasi ekan,  
«Quvlagan» narsa.

Olqor DAMIN

## BASTAKOR QIZ

### SHAHNOZA



Tahririyatimizga istarasi issiqliqqa bir o‘quvchi qiz onasi bilan kirib keldi. Biz u bilan yaqindan tanishdik.

Tengdoshingiz Shahnoza Mirzamahmudova poytaxtimizdaggi 157-maktabning 9-sinfida a’lo baholarga o‘qiydi. U rus, ingliz tillariga, adabiyot, fizika, kimyo va biologiya fanlariga juda qiziqadi. Shuningdek, Shahnoza sind sardori. U boshchiligidagi sind o‘quvchilari maktabda o‘tkazilayotgan «Bilimdonlar bellashuvi»da birinchilikni qo‘ldan bermayapti.

Bilasizmi, Shahnozaning barcha fanlardan a’lo o‘qishiga sabab, sportning aql gimnastikasi – shaxmat bilan jiddiy shug‘ullanishida bo‘lsa kerak. Yaqinda maktablararo sport musobaqalarida u birinchi o‘rinni egalladi.

Bilimga chanqoq, tirishqoq Shahnoza darslardan so‘ng Muxtor Ashrafiy nomidagi 7-Bolalar san‘at maktabiga san‘atga ixlosi baland. Musiqa Vladimirna Shahnoza Quyon, «Kuz ohanglari», «Yomg‘ir tomchisi» kabi she’rlarga kuy bastalaganini ko‘rib quvondi. Ayni paytda ustozni boshchiligidagi ko‘plab bolalar qo‘shiqlariga yangi-yangi ohanglar topishda izlanmoqda.

O‘tgan yili «Fond forum» jamg‘armasi tomonidan o‘tkazilgan ko‘rik-tanlovda fortepyanoda «Bahorda» kuyini ijro etgan Shahnoza mutaxassislar nazariga tushdi.

Yaqinda esa san‘at maktabida o‘tkazilgan «Quvnoq daqiqalar» ko‘rik-tanlovida «Masxaraboz» kuyi uchun munosib taqdirlandi. Quyidagi Zulfiyaning «Oydinda» nomli she’riga ham Shahnoza kuy bastaladi. Serqirra iste’dod egasi bo‘lmish bu qizga omadlar tilab qolamiz.


**Yosh san‘atkori**

Jilib-jilmas to‘lin oy,  
Bulut xayolday yengil.  
Oy anhorda quluntoy,  
Gilosda shig‘il-shig‘il.

**Naqarat:**

Yaxlit oynaday bo‘lib,  
Hovuzaga yoyilgan u.  
Egilsam tupdan to‘lib,  
O‘zim chiqdim ro‘baro’!

Atrofim to‘la saf-saf,  
Ming-ming yulduz ora man.  
Barin sidirg‘a chayqab,  
Yerga sudrab boraman.



FERUZA

Ko'ngil daftari

## MAFTUNKOR VATAN



Beshikda ilk bora eshitgan so'zim,  
Ona allasiga maftunman o'zim.  
Vaslingga tikilib to'ymadi ko'zim,  
Onamning timsoli – o'zingsan Vatan.

Chamanzor bog'lar-u go'zal shaharlar,  
Qay birin kuylayin, kuylamak istak.  
Qalbimda bir tuyg'u uyg'onib borar,  
Meni imlayverar nurli kelajak!

Barkamol avlod bu – g'ayratga to'lgan,  
Bor ulug'ishlarga ko'nglini bergan.  
G'oliblar safida bayrog'i baland,  
Ko'tarib doimo oldinda bo'lgan.

Zuhra ODILBOYEVA,  
Yangiyo'l tumanidagi 55-maktabning  
7-sinf o'quvchisi

## ONA TILIM

- Varaqlayman kitobni bir-bir,
- Tuzilgandir hikmatlar bisyor.
- Yuragimdan joy olar nурday,
- Ona tilim ma'nosi tagdor.
- O'qiyversang ochilar tilsim,
- Sen ham so'zdan terib olgin dur.
- Muqaddasdir bu ona tilim,
- Uni doim bayroq qilib yur.

Gulbahor MURODOVA,  
Yunusobod akademik litseyi talabasi

## TUSH

Bir kuni ko'ribman tush,  
Tushimda bo'libman qush.  
Osmonlarga uchibman,  
Oymomonni quchibman.

Munira NABIYEVA, Navoiy viloyati, Nurota tumanidagi 60-maktab o'quvchisi



## YURTIM

- Yetmish ikki tomirimda,
- Jo'shib oqqan qonimdirsan.
- Mehri otash yuragimda,
- Tug'yon urgan jonimdirsan.
- Yulduz bo'lsam osmoningda,
- Sen o'zingsan cheksiz samo.
- Zarra bo'lsam shu zaminda,
- O'zing porloq quyosh bobo.
- Jannatning ham ostonasi,
- Koshonasi o'zing – Vatan.
- Buyuk millatning onasi,
- Otasi ham o'zing – Vatan.

Muyassar O'RQOVA,  
«Kompyuter texnologiyalari» akademik  
litseyi 2-bosqich talabasi

## TI SIMLI DUNYO

Dunyoga kelishar, ketishar,  
Hech kimsa qaytdim deb aytolmas.  
Bu umr va suvlar o'xshashdir,  
Suvlar ham orqaga qaytolmas.

Kelish-u ketishdan ne ma'no?  
Dunyoning yashirin bu siri.  
Qarasang atrofga, odamga,  
Yechimsiz tilsimdir har biri.

Ne bo'lsa, otini baxt qo'ydim,  
Tilsimli betakror ro'yodaman.  
Yashayman, orzular hamrohim,  
Men bir tilsimli dunyodaman.

Zarnigor SUBONOVA,  
Termiz shahridagi  
10-maktabning 7-sinf  
o'quvchisi

## Dunyoni lol qoldirgan bolalar

Aziz o'smir yigit-qizlar!

Mazkur ruknimizni ixtirochilikka qiziqadigan bolalar uchun tashkil etdik. Buyuk insonlar buyuk kashfiyotlarni qanday yaratganlar?

Biz shu to'g'rida qiziqarli hikoya qilib boramiz.

Isaak Nyuton degan olimning nomini eshitgansiz. U buyuk ingliz fizigi hisoblanadi. Olim 1643-yilda Angliyaning Graktem shahri yaqinidagi Vulstron qishlog'ida tug'ilib, 1727-yilda vafot etgan.

Uning hayotidan olingen bir shingil lavhani e'tiboringizga havola qilamiz:

Kuz payti.

Nyuton jismlardan har xil shakllar yasash bilan band: bunisi ko'zgu, bunisi prizma, unisi linza. U prizmani quyosh nuriga tutgan edi, kamalakdek jilolar ko'zni qamashtirdi. «Qanday ajoyib nurlar!» quvondi u.

Tushga yaqin boqqa chiqib, olma daraxti soyasida yotdi. «Juda ko'p go'zal o'ynchoqlar yasadim, o'yladi u. O'zi yuradigan qurilmalar, suv tegrimoni, parraklar... Hammasi zo'r!»

Tap etib yerga olma tushib, xayoli bo'lindi. Har narsaga qiziquvchan bola emasmi, «Nega olma hech qayoqqa og'may, to'g'ri tushadi?» deya o'yladi.

Nyuton savolga javob topish uchun naq yigirma bir yil izlandi va u butun olam tortishish qonunini kashf etdi. Bu qonunlar kashf etilmaganda, bugun olimlar quyoshning qachon tutilishini, kosmik kemalarning h a r a k a t trayektoriyasini aniqlab berolmagan bo'lardilar.

*Biz hech kimdan kam emasmi,  
kam bo'lmaymiz ham.*

\*\*\*

Olimning hayoti haqidagi to'liq ma'lumotlar adabiyotlarda mavjud. Ularni o'zingiz o'qib olarsiz. Shuni eslatib o'tish joizki, dunyoda hali ochilmagan va Sizni kutayotgan sir-sinoatlар juda ko'p. Masalan, haligacha uchar likopcha ixtiro etilmagan yoki tibbiyotda rak kasalligining to'liq davo siri ochilgani yo'q. O'qing, o'rnak oling, insoniyatga yordam bering. Ana shunda millat ham, Vatan ham Sizni ulug'laydi. Biz esa gazetamizning keyingi sonlarida yana bir mashhur inson haqida hikoya qilamiz. Fikr-mulohazalar tug'ilsa yoki biror ixtiroingiz bo'lsa, bizga xat orqali bildirishni unutmang.

Bu kun qizlarimizning kiyimlari borasida bir so'z aytermiz, quloq solsinlar.

Allomadan so'radilar:

- Qizlarning yasan-tusanga cheksiz mayl qilishlari, ortiqcha zeb-u ziynatga berilishlari juda xatarlidir. Bunday qizlarda qanday yomon odatlar ko'zga tashlanadi?
- Biror dugonasining yoki ko'cha-ko'ydag'i qizning ustida bir kiyim ko'rdimi, undan o'ziga tikirmay hech tura olmas. Do'konda yangi mato ko'rdimi, undan bir kiyimlik olmaguncha sira ko'ngli tinchimaydi.
- Ulardan boshqalarga ziyon yetadimi?
- Albatta. Birinchidan, otaning karmonidan baraka qochadi. Yurtga, odamlarga ziyon yetadi.
- Buni qanday izohlasa bo'ladi?
- Mo'may daromadni ko'zlagan olg'irlar qop-qop pul topish uchun yangi-yangi modadagi kiyimlarni sotuvga chiqaradilar. Yoki qizlar shu moda ekan, zamonaviy kiyim ekan, deb bir-birlariga ko'r-ko'rona ergasha boshlaydilar. Hazrati Alisher Navoiy: «Eraklarning xotinlardek, xotinlarni erkaklardek azimdir», deganlar.

So'radilar:

- Qanday kishilar tartibli Javob qildilar:
- Kiyinishing g'oyat Chunonchi, kechqurun boriladigan liboslar lozim.
- O'ziga nomunosib kiyinadiganlar haqida nima deysiz?
- Ziyarak qiz hech qachon o'ziga nomunosib kiyimni ravo ko'rmaydi. Ko'cha-ko'ya yarim yalang'och kiyinib yuradigan qizlarni xorijda, chet ellarda yomon tabqa qatoriga qo'shishadi va ulardan hazar qilishadi.

So'radilar:

- Aslo eskirmaydigan kiyim qaysi?
- Dedi:
- Yaxshi nom.
- Darvoqe, aziz singillar, yaxshi nomga sazovor bo'lish har biringizning maqsadingiz ekanligini yaxshi bilasiz.

Bu yo'lda Sizga jindek ko'rsatma berolgan bo'lsak va bu hikmatlarni ulog'ingizga olgan bo'lsangiz, g'oyat mammunmiz.

Sh. Niyanshixova

## OZ-OZ O'RGANIB, DONO BO'LUR



*YO TAVBA.  
SHUNAQDANI?*


sanaladi?

nozik tartibi bordir,  
teatr, konsertlarga kiyib  
o'qish kiyimidan farq qilishi

maqsadingiz ekanligini yaxshi bilasiz.

Bu yo'lda Sizga jindek ko'rsatma berolgan bo'lsak va bu hikmatlarni ulog'ingizga olgan bo'lsangiz, g'oyat mammunmiz.

Jajji champion



## ШАХМАТ ТОЈИНИ КІУМОҚСИ

Poytaxtimizning Uchtepa tumanidagi 75-maktabning 1- sinf o‘quvchisi 7 yoshli Ortijjon Nig‘matovni sinfdoshlari hozirdanoq shaxmatchi bola, deb chaqirishyapti. Chunki u bog‘cha yoshidanoq bir qancha musobaqalar

g‘olib bo‘lib, shu kungacha 24 ta turli diplom va sovrinlarni qo‘lga kiritdi. Murabbiyi Rashid aka Ziyovuddinov uning iste’dodini yuksak baholamoqda.


Yaqinda u shaxmat bo‘yicha Respublika championatining tuman bosqichida birinchi o‘rin sohibi bo‘lib, shahar bosqichiga yo‘llanma oldi va uchinchi o‘ringa ko‘tarildi. Hozir Ortijjon juda band. Chunki u 17-29-noyabr kunlari Turkiyada bo‘lib o‘tagidan 8-16 yoshlilarni jahon championatiga tayyorgarlikni boshlab yuborgan.

Izlanish va intilish jajji championni kelajakda Rustam Qosimjonovdek shaxmat tojini kiyishga chorlaydi, deb umid qilamiz.

*Nafosat ERKAYEVA,  
1-Toshkent Pedagogika kolleji 2-bosqich talabasi*

Barmoqlarini og‘ziga tiqib ovqatlanayotgan bolani oyisi tartibga chaqirdi:

- Besh barmog‘ingni og‘zingga tiqmasang bo‘lmaydimi?
- Barmoqlarim beshta bo‘lsa, nima qilay?
- dedi bola.



Sodda bolakay xumga

– Buvi, buvi, xumming ichiga o‘g‘ri bola kirib olibdi, – deya baqirdi.

Sodda buvisi yugurib kelib xumga qaradi va yoqasini ushlab:

– Voy, bolam, endi nima qilamiz? O‘g‘rining yonida bir yosuman kampir ham turibdi-ku! – dedi.

## E’loq

«O‘zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi kitob tarqatuvchi agentlarni shartnoma asosida ishga taklif etadi.

Murojaat uchun manzil:

Toshkent sh. Navoiy ko‘chasi, 30 - uy.

Tel: 144-34-01,  
144-37-81



Qadrli ustozimiz Rohila Muhammadjonovna!

Sizni ustoz va murabbiylar kuni bilan chin yurakdan qutlaymiz. Doinio sog‘-salomat bo‘lishingizni tilab 51-fransuz tiliga ixtisoslashgan maktabning 1-«V» sınıf o‘quvchilari.

Bu qiziq!

Ayrim baliqlarning ko‘krak suzgichlari juda rivojlangan bo‘lib, ular uchish qobiliyatiga ham egadirlar. Ularning uchishlari ichki organlar orasidagi alohida havo xaltachalarining yirik bo‘lishi bilan bog‘liq.

«Uchar baliqlar» deb nom olgan bu jonzotlar juda baquvvat bo‘lib, dushmanlardan qutulish lozim bo‘lgan paytda dumlarining kuchli harakati bilan o‘zlarini suvdan tashqariga otadilar. Havoda esa qanot shaklini olgan suzgichlar ochiladi. Bu suzgichlar ularning uchishini ta’minlaydi.

Uchar baliqlar havoda 2-3 metrgacha ucha oladi. Hatto ba’zilari kichik kemalarning palubalari ustidan sakrab o‘tishga ham qodir.



## UCHAR BALIQLAR

**TAHRIR HAY’ATI:**  
Turobjon JO‘RAYEV,  
Dilbar ALIMJONOVA,  
Qahramon QURANBOYEV,  
Jabbor RAZZOQOV  
(«O‘zbekiston» NMU Bosh muharrir o‘rinbosari),  
Dilmurod RAHMATILLAYEV,  
Dilshoda DADAJONOVA,  
Feruza JALILOVA  
(Bosh muharrir o‘rinbosari),  
Sobirjon SHARIPOV,  
Ergashvoy SARIQOV.

**Manzilimiz:**  
700129,  
Toshkent shahri,  
Navoiy ko‘chasi, 30-uy.  
Obuna indeksi: 198,  
e-mail: tong1924@mail.ru  
**Tel:** 144-27-25 144-63-08  
**Tel/faks:** (99871) 144-38-10

**Rassomlar:**  
Nodira MIRZAYEVA,  
Feruz MATYOQUBOV

**Gazeta «O‘zbekiston»**  
nashriyot-matbaa ijodiy  
uyida  
chop etildi.  
Gazeta haftaning  
dushanba kuni chiqadi.  
Shakli A-3,  
2 bosma taboq.  
**Adadi - 19010**  
**Buyurtma N: J 4096**



## «ЯНГИ АВЛОД - 2007»

**РЕСПУБЛИКА БОЛАЛАР  
ИЖОДИЁТИ ФЕСТИВАЛИ**  
**З ИЙЛ ИЧИДА ГОЛИБЛАР СОНИ - 384 ТА!**  
**ЁШИНГ 6 дан 14 гача БўЛАСА,**  
**СЕН ҲАМ ГОЛИБЛАР КАТОРИТА ҚУШИЛ!**

Уз йўналишингни танла:


- Мумтоз чолгу асбоблари (фортециано, торли, зарбли ва бошиқа созлар).
- Миллӣ чолгу асбоблари (торли, чертиб чалинадиган, зарбли созлар).
- Вокал (анъанавий ижро, академик ижро, эстрада).
- Ракс (миллӣ, бал, спорт, замонавий раҳслар, балет).
- Амалий ва тасвирий санъат.
- Шеърият, насрор асарлар ва саҳна асарлари.



## АРИЗАЛАР 2007 ЙИЛ 1 АВГУСТДАН 1 ОКТАБРГА ҚАДАР

“Келажак овози” ёшлар ташабbuslari марказининг худудий бўлимлари ва “Камолот” ёшлар ижтимоий ҳаракатининг вилоят, туман ва шаҳар бўлимларида қабул қилинади.

**СЕНИНГ ИКТИДОРИНГ + БИЗНИНГ КЎМАТИМИЗ**



**УМУМИЙ ГАЛАБАМИЗ!!!**

Батафсил маълумот учун телефон:  
(998-71) 142-08-83, 142-05-56  
www.fundforum.uz  
e-mail: fonduz@mail.ru



## RANGI O‘ZGARUVCHAN QUSH



Bu qiziq!

G‘arbiy Afrikada tashqi ko‘rinishidan yovvoyi kaptarlarga o‘xshash bir qush yashaydi. Biroq, patlarining rangi har xil, tovos kabi tovlanadi: zangor, ko‘k, sariq, to‘q qizil. Bu qushning yana bir xususiyati borki, u yomg‘ir ostida qolsa, ranglari «yuvilib», ko‘rimsiz bo‘lib qoladi. Quyosh charaqlab chiqqach esa avvalgidek yal-yal tovlanadi.



### Muassislar:

O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi,  
O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligi,  
«KAMOLOT» Yoshlar ijtimoiy harakati,  
«SOG‘LOM AVLOD UCHUN» hukumatga  
qarashli bo‘limgan xalqaro xayriya jamg‘armasi.

**BOSH MUHARRIR:**  
To‘lqin HAYITOV

Dizayner va  
sahifalovchi:  
Fazliddin  
SHOYODGOROV  
Navbatchi:  
Gulyuz  
Orifjonova

Gazeta  
O‘zbekiston  
matbuot va  
axborot  
agentligida  
0208-raqam  
bilan 2007-yil  
2-fevralda  
ro‘yxatdan  
o‘tgan.

**TAHRIR HAY’ATI:**  
Turobjon JO‘RAYEV,  
Dilbar ALIMJONOVA,  
Qahramon QURANBOYEV,  
Jabbor RAZZOQOV  
(«O‘zbekiston» NMU Bosh muharrir o‘rinbosari),  
Dilmurod RAHMATILLAYEV,  
Dilshoda DADAJONOVA,  
Feruza JALILOVA  
(Bosh muharrir o‘rinbosari),  
Sobirjon SHARIPOV,  
Ergashvoy SARIQOV.

**Manzilimiz:**  
700129,  
Toshkent shahri,  
Navoiy ko‘chasi, 30-uy.  
Obuna indeksi: 198,  
e-mail: tong1924@mail.ru  
**Tel:** 144-27-25 144-63-08  
**Tel/faks:** (99871) 144-38-10

**Rassomlar:**  
Nodira MIRZAYEVA,  
Feruz MATYOQUBOV

**Gazeta «O‘zbekiston»**  
nashriyot-matbaa ijodiy  
uyida  
chop etildi.  
Gazeta haftaning  
dushanba kuni chiqadi.  
Shakli A-3,  
2 bosma taboq.  
**Adadi - 19010**  
**Buyurtma N: J 4096**